BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH UZVIYLIGI VA IZCHILLIGINI TA’MINLASHNING AHAMIYATLI JIHATLARI

[1]Xadicha Jabborovna Sattorova, [2]Oribxonova Durdona Odilxon qizi
[1]Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti
[2]Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti IV bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.10355942

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslari orqali o‘quvchilarning til haqida bilimini kengaytirish, bu asosda «Sintaksis»bo‘limini tanishtirish va uning asosiy tushunchalarni o‘rgatish hamda ta’kidlanganlarning ahamiyati borasida nazariy ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, dastur doirasidagi amaliy jarayonlar to‘g‘risida ham fikr-mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Til, sintaksis bo‘limi, sintaktik tushunchalar, gap, ega va kesim, ikkinchi darajali bo‘lak.*

Аннотация. *В этой статье начальная школа через уроки родного языка. даются теоретические сведения, касающиеся расширения знаний учащихся о языке, введения раздела «Синтаксис» и преподавания его основных понятий и значения выделенных из них. Также даются отзывы о практических процессах в рамках программы.*

Ключевые слова и фразы:*Язык, синтаксический раздел, синтаксические понятия, предложение, притяжательное и причастие, второстепенное предложение.*

Abstract. *In this article, primary school through native language lessons theoretical information is given regarding the expansion of students' knowledge about the language, the introduction of the "Syntax" section and the teaching of its main concepts and the importance of the highlighted ones. Also, feedback is given on the practical processes within the program.*

Keywords: *Language, syntax section, syntactic concepts, sentence, possessive and participle, secondary clause.*

Bugungi kunda mamlakat bo‘ylab ta’lim shasi doirasida olib borilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadi Vatan ravnaqi va kelajagi sanalgan barkamol avlod vakillariga ta’lim-tarbiya berish jarayonini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish, yosh avlodni mustaqil fikrlashga, bilim olishga, ajdodlarining boy ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy merosini qadrlashga o‘rgatish hamda ta’limning uzliksizligini ta’minlashdan iboratdir.

Ma’lumki, respublika sharoitidagi ta’lim jarayonida dastlabki bosqich — boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Garchi inson ongiga til ona suti orqali singsada, dunyo bilimlarini o‘rganish va ularni hayotga tadbiq etish dastlab boshlang‘ich sinfdan boshlanadi. Bola o‘z ona tilida biyron so‘zlay olishi uning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Dastlabki qalam yoki ruchka ushlash jarayoni ham boshlang‘ich sinfda amalga oshadi.

Shu boisdan ham boshlang‘ich sinfdanoq ona tili fanini chuqur mazmunda tashkil etish boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning shaxsiyatini rivojlantirishda eng yaxshi ko‘makchi bo‘la oladi. Zero, didaktika ta’limining poydevorini qo‘yishda eng salmoqli ishlarni amalga oshirgan K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek: «Butun xalq va vatan tildan ilhomlanadi, ma’naviyatlanadi».

Til odamlar o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi sifatida zarurdir. Shuningdek, insonparvarlik madaniyatining bir qismi bo‘lib, atrof-muhitni tushunishning muhim vositasi sifatida ham

qaraladi. Ayni shu munosabat bilan boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishning asosiy maqsadi nutqni rivojlantirish va kognitiv motivatsiyani shakllantirishdir. Bundan uzoqlashmagan holsa aytish terakki, bu o‘rinda boshlang‘ich sinflarda sintaktik tushunchalarni shakllantirish va uning uzviyligi hamda izchilligini ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun asosiy qoida yoki omil boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini «sintaksis» bo‘limi bilan tanishtirish. Chunki boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilar so‘zlarni birlashtirish va gaplar tuzish qoidalari bilan tanishar ekan, avvalo, ularda nutqning sintaktik tuzilishi, nutqiy malakalari shakllanadi, to‘g‘ri rivojlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda til o‘rganishning asosiy vazifalaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishdir. Shu sababli ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili fanidan dars berishda ularning yoshini inobatga olish va buning barobarida ongli ravishda tilda nutq oqimini to‘liq qismlarga bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish; strukturaviy va semantik birliklarni asosiy birlik sifatida ishlatishga o‘rgatish; fikr mavzusini anglash va ajratish asosida tizimli va fikrlarni intonatsion tarzda shakllantirish; so‘zlarni jumlalarga bog‘lash ishlarinining uzviyligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda, dars mashg‘ulotlarini izchillikda tashkil etish taklif qilinadi. Bu o‘rinda ona tilini o‘rganishda va sintaktik asos uchun assimilyatsiya, morfologiya, lug‘at, fonetika va imlo bo‘yicha ish olib borish yanada samaradorlikka erishishda muhim yo‘ldir.

Mamlakatdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun faol bo‘lgan dasturga muvofiq 1-sinfda o‘quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. O‘quvchilarga gap tugallangan fikr bildirishi, gap so‘zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma’lum tinish belgilari qo‘yilishi haqidagi amaliy ma’lumotlar uzviylikda tadqim qilinadi.

2-sinfga o‘tgach esa o‘quvchilar gap haqida amaliy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqida nima deyilganini bildirgan so‘zni ajratishga o‘rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash ayni shu sinfdanoq boshlanadi desak, mubolag‘a emas. Va bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosh bo‘laklarni o‘rgatishga muqaddima demakdir.

Keyingi bosqich — 3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O‘quvchilar gapni amaliy o‘rganishdan tushuncha sifatida o‘rganishga qadam tashlaydilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ta’rifi, ega va kesim atamalari navbati bilan kiritiladi. Bu sinfda gapda so‘zlarning bog‘lanishiga katta e’tibor berilishi lozim. Chunki o‘quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo‘laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so‘z (hokim va tobe so‘z)ni, so‘zlarning grammatik jihatdan, ya’ni qo‘shimchalar orqali bog‘lanishni bilib oladilar.

Yuqoridagi ma’lumot va fikrlarga asoslanib, boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o‘rganiladigan va nazariy o‘rganiladigan bo‘limlarga bo‘linadi deyish mumkin. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridanoq boshlanadi va 3-4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinfda “So‘z birikmasi”, “Gap”, “Darak gap”, “So‘roq gap”, “Buyruq gap”, “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Gap bo‘laklari”, “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “Undalmali gaplar” mavzulari nazariy o`rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajarilishi o‘quvchilarning mavzular yuzasidan bilimini kengaytirishda va mustahkamlashda xizmati qiladi.

REFERENCES

1. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).
2. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 55-58.
3. Савкина О.М. Фигура речи – средство обогащения синтаксического строя / О.М. Савкина // Начальная школа. – 2009. - №11. – С. 88 – 91.
4. Перцева Н.К. Сопоставление предикативной связи и связи непредикативной как единство различения предложения и словосочетания / Н.К. Перцева // Начальная школа. – 2012. -№ 3. – С. 39 – 41.
5. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
6. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman